



USE OF TECHNOLOGICAL TERMS IN PRIMARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES

Dilorom Tashpulatova

Teacher of Chirchik State Pedagogical University

Malika Zaydullaeva

Student of Chirchik State Pedagogical University

Abstract:

The article highlights the importance of using technological terms in primary school technology lessons and their role in the educational process. The author provides recommendations on methods of explaining technological terms to students in a simple and understandable form, their assimilation through practical exercises, and increasing technological literacy. The article emphasizes that the use of terminology not only develops students' knowledge and skills but also serves to increase their creative thinking and interest in technology. At the same time, the necessity of adapting technological terms to the age and psychological characteristics of children is indicated. The article presents the theoretical and practical foundations for the effective use of technologies in primary education.

Keywords: Technology, technological terms, practical training, quilling, origami, modular origami, lego, template, technical literacy, age characteristics, educational process, sketch, panel.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TEXNOLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH

Tashpulatova Dilorom Mukimovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Zaydullayeva Malika Xayrullo qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi



Annotatsiya:

Maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida texnologik atamalardan foydalanishning ahamiyati va o'quv jarayonidagi o'rni yoritilgan. Muallif texnologik atamalarni o'quvchilarga oddiy va tushunarli shaklda tushuntirish usullari, amaliy mashg'ulotlar orqali ularni o'zlashtirish va texnologik savodxonlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Maqolada atamalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi, balki ularning ijodiy tafakkuri va texnikaga qiziqishini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, texnologik atamalarni bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslash zaruriyati ko'rsatib o'tilgan. Maqola boshlang'ich ta'limda texnologiyalardan samarali foydalanish uchun nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: texnologiya, texnologik atamalar, amaliy mashg'ulot, kviling, origami, modulli origami, lego, shablon, texnik savodxonlik, yosh xususiyatlari, o'quv jarayoni, eskiz, panno.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida texnologiya fani o'quvchilarning texnik va ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf texnologiya darslarida bolalarni texnologik atamalar bilan tanishtirish ularga kelajakda zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmasini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Texnologik atamalardan foydalanish o'quvchilarning texnikaga qiziqishini oshirish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va mavzularni chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Shu bilan birga, yosh bolalarga murakkab atamalarni sodda va tushunarli shaklda tushuntirish muhim, chunki bu ularning mavzuni o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida texnologik atamalarni samarali qo'llash usullari va ularning o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Texnologiya ta'limida amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar har bir topshiriqni amalda bajaradilar, o'qituvchi ularga zarur vaqtda ko'rsatma beradi va nazorat qilib baholab boradi va jarayonda ishtirok etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amaliy ishlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o'z ichiga oladi:

1. Amaliy ishlarni bajariladigan topshiriqning murakkabligi oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.

2. Bajarilayotgan amaliy ish mazmuni to'liq tarzda oldingi amaliy ishlarga asoslanishi lozim.

3. Amaliy ish jarayonida mustaqil ishlash darajasi ortib borishi kerak. Amaliy mashg'ulot jarayonida har bir topshiriq oddiydan murakkabga qarab Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslaridagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.

2. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.

3. Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash

a) plastilin va loy ishi;

b) urug'lar bilan ishlash;

d) applikasiya va mozaika ishlari;

4. Loyihalash va modellashtirish;

a) badiiy qurish-yasash.

5. Qishloq xo'jalik mehnati.

Yuqorida keltirilgan ish turlari boshlang'ich sinflarning to'rtala bo'g'iniga ham tegishli bo'lib har bir sinf doirasida mavzulashtirilgan tartibda berilgan. Texnologiya darslarida o'quvchilarga mavzuni yoritib berish vaqtida o'qituvchi albatta texnologiya faniga oid atamalar va lug'atdan foydalanadi. O'quvchi bir darsda bitta yoki ikkita lug'atni yodlab olishi natijasida uning so'z boyligi ham oshib boradi, ushbu fanga oid tushunchalari kengayadi. Uchinchi sinf texnologiya darsligidagi atamalarni olib qaraydigan bo'lsak unda o'quvchilar tanishishlari kerak bo'lgan atamalar izohlari bilan keltirilgan.

Robototexnika - robotlarni qurish, ulardan foydalanish boshqarish, ma'lumotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan mexanika, elektrotexnika, elektron muhandislik va informatika fanlarini birlashtiradigan soha. Ushbu atamani o'quvchilarga tushintirish jarayonida robot turlari, qanday ishlarni bajarishi, ular inson mehnatini qisman yoki to'liq o'zlashtirib olishi umuman olganda insonlarga



yordamchi ekanligi hamda insonlarning qo‘l mehnatini yengillashtirish uchun yaratilishi aytib o‘tiladi.

Origami- dekorativ-amaliy san'at turi; Yapon qog‘oz buklama san'ati. Origami san'ati qog‘oz ixtiro qilingan qadimgi Xitoyda ildiz otgan. Origami dastlab diniy marosimlarda ishlatilgan. Uzoq vaqt davomida san'atning bu turi faqat yuqori sinf vakillari uchun mavjud edi, bu erda qog‘ozni qatlama texnikasini egallash yaxshi shaklning belgisi edi. Isao Xondaning 1965 yilda nashr etilgan "Origami dunyosi" kitobini "Kubik quti" deb ataydi.

Modulli origami- haqida birinchi eslatma 1867 yilda Hayato Oxokoning yapon tilidagi "Ranma Zushiki" kitobida keltirilgan. Unda an'anaviy origami modellari guruhi tasvirlangan gravyura mavjud bo‘lib, ulardan biri modulli kubdir. Kub ikki burchakda ko‘rsatilgan va tushuntirish uni "tamatebako" yoki "sehrli xazina sandig‘i" sifatida tasvirlaydi.

Modulli origami yirik shakllar yaratishda diqqatni jamlash, kichik tafsilotlarga e'tibor berish va bir nechta bosqichlarni kuzatish talab qilinadi. Bu ko‘nikmalar boshqaruvni va konsentratsiyani rivojlantiradi. Mexanika va geometrik tushunchalarni o‘rgatadi: Modulli origami orqali o‘quvchilar geometrik shakllar, simmetriya va muvozanat kabi asosiy matematik tushunchalarni o‘rganadilar. Modulli origami o‘quvchilarga yoki ishtirokchilarga o‘z ijodiy qobiliyatlarini sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Har bir modulni qanday shakllantirish va birlashtirish bo‘yicha tanlov qilish ijodkorlikni oshiradi.

Applikatsiya-Applikatsiya (lot. applicatio — yopishtirish) — gazlama, qog‘oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog‘oz bo‘laklarini tikish yoki yopishtirish yo‘li bilan naqsh ishlash, bezash. Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko‘chmanchi xalqlar orasida paydo bo‘lgan. Ular aplikatsiyadan kiyim-bosh, turar joylarini bezatishda ishlatganlar.

Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yakutlar aplikatsiya ishida po‘stloqdan foydalanishgan, bo‘yalgan po‘stloqdan qilingan aplikatsiyalar bilan ular o‘tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimoliy xalqlar aplikatsiyada teri, sukno, mo‘yna ishlatishgan. Applikatsiya bilan shug‘ullanish o‘quvchilarni garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega.



Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo‘l mehnati, tasvirni his qilish, chamalash va rangni sezishni o‘stiradi. rangli qog‘oz yoki boshqa materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Kviling- (inglizcha quilling; kvilingdan "qush pati" dan), shuningdek, qog‘oz rulosi deb ham ataladi, spirallarga o‘ralgan uzun va tor qog‘oz chiziqlaridan tekis yoki uch o‘lchovli kompozitsiyalar yaratish san'ati. Tayyor spirallarga turli shakllar beriladi va shu tariqa, modullar deb ham ataladigan qog‘oz prokatining elementlari olinadi. Ular allaqachon asarlar yaratish uchun material - rasmlar, otkritkalar, albomlar, foto ramkalar, turli haykalchalar, soatlar, zargarlik buyumlari va boshqalar. Qog‘oz prokat san'ati 14-asr oxiri va 15-asr boshlarida O‘rta er dengizi Evropasida paydo bo‘lgan. Kvilingni rohiblar ixtiro qilgan deb ishoniladi. Kitoblarning zarhallangan qirralarini kesib, ularni qush patlarining uchlari atrofida o‘rashdi, shuning uchun nomi (ingliz tilidan "qush pati" deb tarjima qilingan kviling).

Mozaika-san‘atning qadimiy shakli bo‘lib, kichik parchalar (tesseralar) yordamida rasm yoki naqsh yaratish usulini anglatadi. Mozaika asarlari ko‘pincha rangli tosh, shisha, keramika, marmar, kulolchilik materiallari va boshqa turli xil materiallardan tayyorlanadi. Ushbu san‘at shakli qadimiy zamonlardan boshlab, turli madaniyatlarda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan. Mozaika texnikasi miloddan avvalgi davrlarda, ayniqsa, Mesopotamiya va qadimgi Misrda paydo bo‘lgan. Keyinchalik, bu san‘at shakli Gretsiya va Rimda keng tarqaldi. Rimliklar mozaikalarga juda katta e‘tibor berishgan va mozaika texnikasini san‘atning yuqori darajasiga ko‘tarishgan. Mozaikalar Rim viloyatlaridagi saroylar, hamda diniy joylarda keng qo‘llanilgan. Bizantiyada, ayniqsa, cherkovlar va ibodatxonalarda mozaikalar juda keng tarqalgan.

Mozaika san‘ati bolalarni ijodiy fikrlashga undaydi. Kichik toshlar yoki shisha parchalarini birlashtirish orqali bolalar yangi rasmlar yoki naqshlar yaratishadi. Bu ularning tasavvurini rivojlantiradi va yangi g‘oyalarni topish imkoniyatini yaratadi. Mozaika ustida ishlash bolalar qo‘l va ko‘z muvofiqligini rivojlantiradi. Har bir kichik parchani to‘g‘ri joylashtirish va ularni muvofiqlashtirish, qo‘l va ko‘zning birgalikda ishlashini talab qiladi. Bu motorik ko‘nikmalarni yaxshilaydi.



Mozaika bolalarda boshlang'ich san'at va dizayn ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular shakllar, ranglar va naqshlar bilan ishlashni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar keyinchalik boshqa san'at turlari va dizayn sohalarida ham yordam beradi.

Texnologiya ta'limidagi ish turlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, har bir ishga ijodiy yondashishga o'rgatadi. Har bir amaliy mashg'ulotimizning izchilligi va ketma-ketligiga a'lohida e'tibor qaratishimiz lozim. O'quvchilarning texnologiya darslarida olgan bilimlari kelajakda ulardan yetuk mutaxassislar, ixtirochilar bo'lib yetishishida as qotadi. Amaliy darslarda berilayotgan manbalar o'quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlariga mos kelishi kerak. Aks holda o'quvchilarni haddan ortiq ma'lumotlar bilan charchatib qo'yishimiz mumkin, buning natijasida o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish yo'qolib, dars samaradorligi pasayadi. Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar turli usullarda amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak amaliy mashg'ulot jarayonida har bir topshiriq oddiydan murakkabga qarab yo'naltiriladi. O'quvchilar avvaliga oson topshiriqlarni bajaradilar. So'ngra esa mashg'ulotlar murakkablashib ,ketma-ket bir-birini to'ldirib boradi. Oldingi darslarda o'rganilgan topshiriqlar keying mashg'ulotning mantiqiy davomi bo'lishi kerak. Dastlab mashg'ulot jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ish olib boradi. Keyinchalik o'quvchilarning mustaqil ishlash darajasi ortib borishi bilan ular o'z ustida tinimsiz mehnat qila boshlaydilar. Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarida texnologik atamalardan foydalanish, o'quvchilarga texnologiyaning asosiy tushunchalarini o'rganish va ularga texnologik jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Ushbu atamalarni o'rgatish, o'quvchilarga texnologiya va uning ahamiyatini samarali tarzda tushuntirish imkonini beradi. Texnologik atamalardan foydalanish, o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, texnologiya darslarida to'g'ri atamalardan foydalanish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirib, ularni kelajakda texnologik yutuqlarga tayyorlaydi. Darslarda texnologik atamalarning to'g'ri va o'rinli qo'llanilishi, o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot, texnik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.



REFERENCES:

1. X.Sanaqulov D.Xodiyeva, M.Satbayeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Toshkent - 2015
2. Ashurov N.R, Umbarova N.X.Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qog'oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. "Monografiya" Denov -2022, 160 b.
3. D.Tashpulatova. Boshlang'ich ta'limda "Texnologiya" fanini o'qitishda kompetension yondashuvlar. Multidisciplinary Scientific Journal Academic Research in Educational Sciences ISSN:2181-1385 Volume 4 Issue 3 2023. P.155-158
4. D.Tashpulatova. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent, 2023
5. D.Tashpulatova, K. Ne'matova. Boshlang'ich ta'limda "Texnologiya" fanini o'qitishda kompetension yondashuvlar. Multidisciplinary Scientific Journal Academic Research in Educational Sciences ISSN:2181-1385 Volume 4 Issue 3 2023. P.155-158
6. Эшманова Н.Н., Матупаева Ш.З. Бошланғич синф ўқувчиларда нафосат ва гўзаллик тарбиясини шакллантириш. "PISA-2022 Xalqaro baholash tadqiqoti natijalari tahlili va ta'lim sifatini oshirishning dolzarb masalalari: muammolar, izlanishlar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Farg'ona – 2024. 483-485 b.
7. Dilorom, T., & Sarvinoz, B. (2024). BUGUNGI BOSHLANG 'ICH TA'LIM OLDIGA QO 'YILGAN MUHIM TALABLAR, BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKIRLASHGA O'RGATISHDA MODULLI TALIM TEXNOLOGIYALARI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 3(1), 192-196.
8. Tashpulatova, D. M., & Toshpolatova, S. (2024). METHODOLOGY FOR DIAGNOSING THE MASTERING OF PRIMARY GRADE STUDENTS'SKILLS FOR ACTIVITY. Web of Technology: Multidimensional Research Journal, 2(12), 108-111.
9. Tashpulatova, D. M. (2024). Identifying Knowledge Acquisition Of Primary Class Students. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(3), 276-280.



10. Tashpulatova, D. M., & Abduqahhorova, F. N. (2024). HAFTALIK PEDAGOGIK AMALIYOT DAVRIDA BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA ‘QITUVCHILARINING MAHORATINI O ‘RGANISHNI LOYIHALASHNING PEDAGOGIK MAZMUNI. PEDAGOG, 7(3), 440-444.
11. Tashpulatova, D., & Ne’matova, K. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O ‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI. Interpretation and researches, 1(1).